

BANKLARNING AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Atajonov Alisher Nurmotjon o'g'li

Bank moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotning maqsadi banklarning aktiv va passivlarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni o'rganishdir. Tadqiqotda banklar faoliyatini optimallashtirishda qo'llanilayotgan zamonaviy metodlar, xususan, risklarni boshqarish, kapitalni va likvidlikni optimallashtirish usullari, hamda chet el banklarining ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Banklarning aktiv va passivlarini boshqarishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar : Aktiv, passiv, kapital, tahlil, statistik, matematik modellash, empirik tahlil, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni, tijorat banklari, boshqarish strategiyalari, metod, ilg'or tajriba.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyati samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish jarayonini boshqarish amaliyotini takomillashtirish borasida bir qator dolzarb muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining dunyo mamlakatlari tijorat banklarining daromad bazasiga kuchli salbiy ta'siri yuzaga kelgan. Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan-kredit resurslarini tashkil qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida xalqaro talablar va standartlarni hisobga olgan holda tijorat banklarining aktivlari va passivlarini boshqarish muammolari ortib bormoqda. Ushbu xalqaro ko'rsatkichlarni samarali joriy etish bank faoliyati holatining o'ziga xos xususiyatlarini va ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va hisobga olishda mumkin. O'zbekistonda moliya-bank tizimi faoliyati

samadorligini ta'minlash, banklarda aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarish masalasida ijobiy o'zgarishlarga erishish nuqtai nazaridan kelib chiqib, maqolamizda bankning moliyaviy faoliyatini tashkil etish va boshqarish masalalarini tadqiq etish, uni rivojlanishi bilan bog'liq shart-sharoitlarni o'rganish maqolamizning dolzarbligidan dalolat beradi. Tijorat banklarning aktiv va passivlarini boshqarishning zamonaviy vositalarini aniqlanishi va bank amaliyotiga tatbiq etilishi ularning faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Ammo keyingi yillarda bu sohada hali yechilishi lozim bo'lgan masalalar talaygina. Buning asosiy sabablari, xalqaro va mahalliy banklar amaliyotida tijorat banklarning resurslarini boshqarish masalasi yetarlicha o'rganilmaganligidadir. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablar mavjud.

Respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini ko'paytirish va shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirishini ko'zda tutilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yildagi Sh.Mirziyoyev mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida «...Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya'ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda. Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim. Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi...» 1, - degan dolzarb masalalarni qo'ydi. Bu, o'z navbatida, tijorat banklari faoliyatidagi holat, ularning aktiv va passivlarini qay darajada samarali boshqarilayotganligini o'rganish, tahlil qilish va boshqarish usullarini takomillashtirishni taqozo etadi. Soha mutaxassisi tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish usullarini mukammal bilagandagina bank faoliyatini samarali boshqara oladi. Bu borada «Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish» fani soha mutaxassislari uchun dasturulamal vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar sharhi F.Owusu va A.Alhassan kabi iqtisodchilar Ganadagi 27 ta banklarning 2007-2015 yillar amaliy ma'lumotlari asosida aktiv passivlarni boshqarish bilan foyda o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun Statistik xarajatlar hisobi (Statistical Cost Accounting (SCA)) modelidan foydalangan. Olingan ilmiy natijalar statistik xarajatlar hisobi modelining to'g'ri qo'llanilganligini hamda Gana banklari foydasi banklar balans moddalariga bog'liqligini ifodalaydi. Shuningdek, olingan natijalar mahalliy banklar xorijiy banklarga qaraganda yuqori aktivlar qaytimiga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, yuqori aktivlar qaytimiga ega bo'lgan mahalliy banklarda passivlarning ham yuqori tannarxi mavjudligi va bu umumiy aktivlar rentabelligini pasaytirib yuborishi aniqlangan. Ularning fikricha yuqoridagi modelni qo'llash orqali bank rentabelligini oshirishda o'rni yuqori bo'lgan aktivlarni aniqlash va aktiv-passivni samarali boshqarishda qo'l kelishi taklif qilingan.

Lorella Fatone va Francesca Mariani kabi Italiyalik iqtisodchilar bankda tizimli risk muammosini bank aktiv-passiv dinamik modelida ko'rib chiqqan. Modelning asosiy xususiyatlari banklar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmi va pul-kredit organining bank tizimi dinamikasiga ularning fikricha, bank tizimining dinamikasi mustaqil o'zgaruvchisi vaqt bo'lgan va bog'liq o'zgaruvchisi banklarning aktivlari va passivlari bo'lgan stoxastik differentsial tenglamalar tizimi uchun boshlang'ich qiymat muammosi bilan belgilanadi (to'g'ridan-to'g'ri) aralashuvi imkoniyatini beradi. Cheklangan vaqt oralig'ida tizimli risk ehtimoli statistik simulyatsiya yordamida baholanadi. Tizimli risklarni boshqarish ikki berilgan chegaralar orasidagi cheklangan vaqt oralig'ida tizimli risk ehtimolini ushlab turish maqsadini ko'zlaydi. Pul-kredit organi risklarni tizimli boshqarish uchun javobgardir va boshqaruv o'ziga xos "ideal bank"ning aktivlari va passivlarini vaqt funktsiyalari sifatida tanlash va banklar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmini tartibga soluvchi qoidalarini tanlashdan iborat. Boshqaruv tizim banklarini o'zini "ideal bank" kabi tutishga undaydi. Banklarning aktivlari yoki passivlariga ta'sir etuvchi shoklar simulyatsiya qilinadi. Bank tizimiga ta'sir yetuvchi shok mavjud bo'lganda va bo'lmaganda tizimli risklarni boshqarishning raqamli misollari o'rganilgan.

Passivlar va aktivlar bo'yicha majburiyatlarni boshqarish bankning muhim

vazifalaridan hisoblanadi. Mablagʻlarni jalb qilish yoki ularni joylashtirish bilan bogʻliq operatsiyalarning har ikkalasi ham banklar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ularni samarali tashkil qilish banklar faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Bank resurslari uning passiv operatsiyalari orqali shakllanadi. Shu bois bank resurslarini shakllantirish, uning passiv hisob raqamlari yoki aktiv-passiv hisob raqamlaridagi pul mablagʻlarini koʻpaytirish bilan bogʻliq operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi.

Tijorat banklarining passiv operatsiyalarini asosan toʻrt guruhga boʻlish mumkin:

1. Tijorat banklari qimmatli qogʻozlarini emissiya qilish orqali resurslarni yigʻish;
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
3. Kreditlar, qarzlar va boshqa kreditor – yuridik shaxslardan mablagʻlar jalb qilish;
4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bogʻliq aktiv operatsiyalarining risklik darajasini aniqlash va bu jarayonlarni boshqarib borish muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qaroriga ilova qilingan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi toʻgʻrisida”gi nizomga asosan taʼriflanadi va tasniflanadi. Mazkur nizomda aktivlar – kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qogʻozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablagʻlar, boʻlib-boʻlib toʻlash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bogʻliq barcha boshqa talablar sifatida taʼriflanadi. Bank aktivlari tarkibi deyilganda, balans yakuniga nisbatan har xil sifatdagi aktivlar salmogʻi tushuniladi. Tijorat banklari aktivlarini asosan toʻrt kategoriyaga boʻlib oʻrganish

mumkin. Bular:

- kassadagi pul mablagʻlari va ularga tenglashtirilgan mablagʻlar;
- investitsiya va qimmatli qogʻozlar;
- kredit va ssudalar; -binolar va asbob-uskunalar.

Bank aktivlari – bankka tegishli hamda moddiy qiymatga ega boʻlgan qiymatliklar,

naqd mablag‘lar, qarzga berilgan mablag‘lar, binolar va asbob-uskunalaridan tashkil topadi. Bulardan tashqari bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo‘lib, bular o‘zlarining moddiy shakliga ega bo‘lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadilar. Bank aktivlari tarkibining to‘g‘ri belgilab olinishi va ulardan maqsadli foydalanish banklarning samarali faoliyat olib borishiga asos hisoblanadi. Tijorat banklarining aktivlari o‘ziga xos belgilariga ko‘ra likvidlik va risk darajasiga qarab hamda daromad keltirishiga qarab bir necha guruhlariga bo‘linadi.

1 jadval Bank tizimi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma'lumot

Ko‘rsatkichlar nomi	01.02.2024 y.			01.02.2025 y.			Nominal o‘sishi, foizda	Haqiqiy o‘sishi, (devalvatsiyani hisobga olmagan holda) foizda
	jami	shunda n, xorijiy valyuta da	ulushi, foizda	jami	shunda n, xorijiy valyuta da	ulushi, foizda		
Bank aktivlari, jami	652,387		44%	767,996	315,366	41%	18%	16%
Kredit qo‘yilmalari, jami	469,600	209,628	45%	533,989	227,326	43%	14%	12%
Jami depozitlar	242,119	73,435	30%	310,215	78,202	25%	28%	27%
Jami kapital	98,482	398	0.4%	116,111	415	0.4%	18%	18%

Manba: Markaziy bank rasmiy manbalaridan olingan.

Keltirilgan jadvalda bank tizimi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma'lumot berib o‘tilgan bo‘lib 2024 yilda bank aktivlari, jami 652,387 ta, kredit qo‘yilmalari, jami 469,600, jami depozitlar 242,119, jami kapital 98,482 ta tashkil etgan

boʻlib 2025 yil fevral oyida bank aktivlari, jami 767,996, kredit qoʻyilmalari, jami 533,989, jami kapital 116,111 tashkil etganini koʻrish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. (2020)Tijorat Banklari Aktiv Va Passiv
2. Sh.Mirziyayevning (2019) uchun moʻljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -T.
3. Owusu, F. B., & Alhassan, A. L. (2021). Asset-Liability Management and bank profitability: Statistical cost accounting analysis from an emerging market. International Journal of Finance & Economics, 26(1), 1488-1502.
4. . Fatone, L., & Mariani, F. (2019). An assets-liabilities dynamical model of banking system and systemic risk governance. arXiv preprint arXiv:1905.12431.
5. Berrospide, J.M., & Edge, R. M. (2019). The Effects of Bank Capital Buffers on Bank Lending and Firm Activity: What Can We Learn from Five Years of Stress-Test Results
6. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers,
7. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qaroriga ilova qilingan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi toʻgʻrisida”gi nizom.
8. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. (2020)Tijorat Banklari Aktiv Va Passiv
9. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2203303/>